

INGLIZ TILI O'QUV METODIK TERMINLARNING LINGVOMADANIY QIYOSLANISHI

*M. Begimova*¹

Annotatsiya:

Xorijiy tillarni o'rganishga talab oshib borgani sayin til o'qitishning turli yondashuvlari, metodlari va texnologiyalari kirib kelmoqda, yangi metodik terminlar xam shakllanib bormoqda. Ingliz tili o'quv metodik terminlari ona tilidagi mavjud terminlar bilan lingvomadaniy qiyoslanilib o'rganilish, tarjima qilish jarayonida muammolarga duch kelinishi mumkin. Uning yechimini topish esa hozirgi zamonda dolzarb masala hisoblanadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniy, o'quv metodik terminlar, yondashuv, metod, texnologiya

doi: <https://doi.org/10.2024/bcgb8008>

Kirish

Hozirgi zamonda chet tillarni o'qitishda asosan kommunikativ yondashuvdan foydalanish asosiy o'ringa chiqadi. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali chet tillarni o'qitishda turli innovatsion metodlar integratsiyalashishi kuzatilmoqda. Bu esa o'quv metodik terminlarning o'zgarishi, yangilanishiga olib keladi. Ushbu tadqiqot maqsadi yangi kirib kelayotgan o'quv metodik terminlarning shakllanishi, ularning linvo-madaniy o'rni va tarjimada qilishda duch keladigan muammolarni tahlil qilishga urinishdir.

Tadqiqot materiali qilib xorijiy olimlarning chet tillarni o'qitishdagi zamonaviy ma'lumotnomalar va lug'atlar, shuningdek ularning metodika va pedagogikaga doir turli ilmiy taqdidotlari va asosan «Longman dictionary of language teaching and applied linguistics» Jack C.Richards, Richard Schmidt, uchinchi va to'rtinchi nashrlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Chet tillar o'qitishning maxsus terminologik lug'atlar, ma'lumotnomalar va ensiklopedialar bir qancha xorijiy olimlar tomonidan yaratilgan. Hususan, Jack C.Richards, Richard Schmidtning «Longman dictionary of language teaching and applied linguistics», Scott Thornbury "A-Z of ELT", E.G.Azimov, A.N.Shukin «Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)», I.L.Kolesnikova, O.A.Dolgina «Словаря методических терминов» «Англо-Русский терминологический справочник по методике преподавание», va shuningdek o'zbek terminshunoslari M.Kukiboyeva, D.Jabborova "Dictionary of ELT terms and acronyms" lar qo'llanilib kelinmoqda. Ammo chet tillarni o'qitish va o'rganish terminologik lug'atlari o'zbek tilida yoki ingliz-o'zbek tiligagi muqobil variantlari yo'qdir. Bir qancha metodik kitoblarning glossariylari mavjud va bizning fikrimizcha bular bir terminologik lug'at shaklida yaratilishi kerak.

Muhokama va natijalar

¹ Begimova Manzura Xolboyevna, ToshDO'TAU 3-bosqich doktoranti

Chet til ta'limida deyarli istifoda qilinmaydigan terminlardan „qiyosiy metodika“ ni ko'rsatish mumkin. Qiyosiy metodika ikki ma'noni ifodalaydi (ma'lumki, termin aslida bir ma'noli bo'lishi kerak): 1. Turli o'quv yurtlarida chet til o'qitish. 2. Til ta'limshunosligi, ya'ni ona tili, ikkinchi til va chet tilni yoki o'zga (ikkinchi va chet) tillarini o'qitish.¹ Ikkinchi ma'nosidagi e'tibor qaratib, tillarni o'qitishda va o'rganishga turlicha yondalishini ko'rishimiz mumkin. Bu yondashuvlar hamda o'qitish usullari integratsiyalashib, rivojlanib borishi tufayli unda ishlatiladigan terminlar va tushunchalar ya'ni konseptlar xam o'zgarib boradi. Xorijiy tillarni o'rganayotgan kishilarning yangi guruhlar paydo bo'lmoqda, ularning til o'rganish maqsadlari va shartlari o'zgarib va bilish darajasini nazorat qilish usullari ham o'zgarmoqda. Til o'rganishdagi maqsadlar o'zgarishi til o'qitishda yangi metod va texnikalarni izlash, yangi darsliklar va lug'atlarining yaratilishini taqozo etadi.

Bularning barchasi chet tili o'qituvchilarning tinimsiz mehnatini ya'ni turli xalqaro konferensiyalar, seminarlarda qatnashishi, xalqaro malaka oshirish kurslarida treyninglar o'tashlari, turli metodik kitoblar va maqolalarni o'qishlarini talab etadi. Afsuski chet tillarni o'qitish nazariyasi va metodikasida eng muhim tushuncha va terminlarni tanlashda ham ularga ta'rif berishda ham umumiy qabul qilingan yagona yondashuvlar mavjud emas. Buning sabablari: chet tili o'rganish va o'qitish jarayonlarini tavsiflash murakkabligi; ko'plab fanlar va ulardan ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi; til o'qitishda yangi nazariya va metodlarning paydo bo'lishidir. O'quv metodik terminlari keltirilgan glossariylar mavjud lekin metodik terminlar tarjimasi bilan lug'at chiqarilmaganligi ishimizni dolzarbligini bildiradi.

O.S. Axmanova tomonidan termin so'ziga quyidagicha ta'rif keltirilgan: „Termin - bu maxsus (ilmiy, texnik va boshqalar) tilning so'zi yoki iborasi bo'lib, maxsus tushunchalarni to'g'ri ifodalash va maxsus obyektlarni belgilash uchun yaratilgan (qabul qilingan, olingan va hokazo).“² Biz ham shu fikrga qo'shilgan holda termin- bu ma'lum bir sohaning aniq bir so'zlari yoki so'z birikmalari bo'lib u soha vakillari tomonidan og'zaki va yozma muloqotlarda qo'llaniladi. «Terminlar ma'lum faoliyat sohasi tushunchalarini bildirish funktsiyalarini bajaradi. Gumanitar fanlarlarining, shu jumladan lingvodidaktik terminologiyaning o'ziga xosligi ularning ijtimoiy-madaniy shartlanishidadir. Gumanitar fanlar terminologiyasining xarakterli xususiyatlari, ma'lumki, tarixiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan bir qator omillar tufayli madaniyatlararo yoki milliy jihatdan aniqlangan polisemiya va sinonimiyadir.»³

Darxaqiqat o'quv metodik terminlarning xam o'ziga xosligi ularning ijtimoiy madaniy shakllanishidadir. Masalan, rus tilshunosligida metodik terminlar *lingvodidaktik* terminlar deb ataladi. Ushbu termin o'zbek tilshunosligiga ham o'z holicha o'zgarmasdan kirib kelgan. Biroq ingliz tilida *lingvodidaktika* termini ishlatilmaydi. Rus tilidagi *lingvodidaktika* terminining tushunchasi ingliz tilida bir necha talqinda beriladi. Ular: *applied linguistics*, *language teaching methodology (theory)*, *language pedagogy*, *theory of language acquisition*. Ingliz tilini o'qitish metodikasini ko'rib chiqsak ingliz tili xorijiy tili sifatida ishlatiladigan metodlar ingliz tili o'qituvchilarini shuningdek xorijiy filologiyasi fakulteti talabalarini ham qiziqtirib kelgan. Ba'zi metodlar nomlari kelib chiqishi tarixiga, kim asos solganiga va ularning ishlatilish maqsadlariga asoslanib nomlanadi. Masalan „*Communicative language teaching*“⁴ - kommunikativ o'qitish metodi uning maqsadiga asoslanib nomlangan. *Community language learning*⁵-Jamo'a bo'lib til o'rganish yani bu ikkinchi til yoki chet tilini

¹ J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent - 2012.350-353bb.

² Axmanova O.S. «Дифференциальная лингвистика» и «филологическая топология» // ВЯ. 1981. С. 49.

³ Лингводидактические Термины В Русском Языке: Социокультурный И Сопоставительный Аспекты* И.И. Ярославская, Е.В. Астремская. Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика, 2014, № 2. С.216

⁴ Jack C.Richards, Richard Schmidtning «Longman dictionary of language teaching and applied linguistics» Third edition

⁵ Jack C.Richards, Richard Schmidtning «Longman dictionary of language teaching and applied linguistics» Fourth edition

o'qitish yoki o'rganishda qo'llaniladi. Psixologik va hissiy muammosi bor kishilarga guruhda maslahatlashib yordam berish texnikasini qo'llaydi. Kichik va katta guruhlarda o'rganishdan foydalanadigan metoddir. Bu guruhlar "community"-jamo'a deyiladi. Shundan ko'rinib turibdi ushbu metod ham o'zining maqsadidan kelib chiqib nomlangan.

"Suggestopedia" metodi- "Lozanov metodi. Bolgariyalik o'qituvchi, psixiater Lozanov tomonidan ishlab chiqilgan chet tilini o'rgatish metodikasi. U tilni taqdimot qilish yoki amalda qo'llash uchun dialoglardan, har hil holatlardan va tarjimalardan foydalanadi, xususan, o'rganishni yanada qulay va samarali qilish uchun musiqa, vizual tasvirlar va dam olish mashqlaridan foydalanadi. Suggestopedia inson xulq-atvoriga ta'siri bo'lgan "Suggestology" ning pedagogik qo'lanishi deyiladi. Ya'ni "suggestion" and "pedagogy" so'zlaridan kelib chiqqandir. Bunda ham ko'rinib turibdiki metodning nomi uning kelib chiqishi bilan bog'liqdir. *TPR-Total physical response*² - umumiy jismoniy harakatga tayanish. Ushbu metodga 1970 yillarda James Asher tomonidan asos solingan bo'lib, o'rganuvchi tomonidan jismoniy harakatni talab qiladigan ko'rsatmalar va buyruqlar berilib so'zlar taqdim qilinadi. (masalan: derazani ochgin yoki o'rningdan turgin)

Ingliz tilidagi *approach, method, technique* terminlarini xam ona tilida qo'llanilganda ba'zi tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Masalan, ingliz tilida *communicative approach, va communicative language learning, communicative language teaching*. Ushbu yondashuv va metodlarning maqsadi bir xildir. *Audio-lingual approach, audio-lingual method* larning xam maqsad va vazifalari bir xildir. Bularga o'xshash bir qancha metodlar va yondashuvlar ona tili bilan solishtirilganda bir qancha tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Ona tilida ba'zi yondashuvlar metod bo'lib ishlatilmaydi. Ingliz tilida esa bir qancha yondashuvlar kichik metodlarga bo'linib ularning nomlari yondashuvlar nomlari bilan o'xshash bo'ladi. Ulardan *Natural Approach-Tabiiy yondashuv, Natural Method -tabiiy metod* – bunda yondashuv va metodning tamoyillari bir xil qilib olinmoqda lekin tabiiy yondashuv bir qancha metodlarni o'z ichiga olishi aytiladi.

O'quv metodik terminlarning doimiy rivojlanishi bilan undagi ba'zi terminlar eskirib muomoladan chiqib ketishi xam kuzatiladi. Masalan *pupil, pattern, exercise, English laboratory* so'zlari kam qo'llanilib *student, task, activity, communicative, learner* so'zlari faol ishlatilmoqda. Yangilangan terminlarni asosan terminologik lug'atlarda va metodik kitoblarning glossariylarda uchratish mumkin.

Xulosa

Chet tillarini o'qitish metodikasi va ona tili o'qitish metodikasi terminlarini qiyoslash, ularni tahlil qilish ushbu terminlar tarjimasida uchraydigan muammolar yechimini topish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — М.: Икар, 2009.

[2]. Ахманова О.С. «Дифференциальная лингвистика» и «филологическая топология» // ВЯ. 1981. С. 49.

[3]. Jack C.Richards, Richard Schmidtning «Longman dictionary of language teaching and applied linguistics» Third edition

[4]. J.Jalolov. Chet til o'qitish metodikasi. o'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent – 2012 350-353-b.

¹ Jack C.Richards, Richard Schmidtning «Longman dictionary of language teaching and applied linguistics» Third edition

² Jack C.Richards, Richard Schmidtning «Longman dictionary of language teaching and applied linguistics» Third edition

- [5]. Колесникова И.Л., Долгина О.А. Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков. — М.: Дрофа, 2008.
- [6]. Лингводидактические термины в русском языке: социокультурный и сопоставительный аспекты* И.И. Ярославская, Е.В. Астремская. Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика, 2014, № 2. С.216
- [7]. Ловцевич Г.Н. Кросскультурный терминологический словарь как словарь нового типа (на материале английских и русских терминов лингводидактики): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. — М., 2010.